

## YUZ YILLIK URUSH

**Xakimova Zubayda Muxtaraliyevna**

*Oriental Universiteti*

*Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari) yo‘nalishi 5-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Yuz yillik urushning sabablari hamda urushning borishi, Angliya va Fransiya o‘rtasida urush hisoblanadi. Bordo qamali bilan yakunlanganligi haqida fikrlar yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Angliya va Fransiya, Janna Dark Azenkur janggi, truas shartnomasi, Bordo qamali.*

Yuz yillik urush (1337–1453) Buyuk Britaniya va Fransiya o‘rtasida Fransiya taxtiga bo‘lgan da‘volar hamda Angliyaning Fransiya hududlariga bo‘lgan qiziqishi tufayli boshlangan. Urushning boshlanishiga sabab bo‘lgan asosiy omil, Angliya qiroli Edward III ning Fransiya taxtiga da‘vosi va Gascogne (Fransuz qirolligidagi Angliya feodal mulki) hududini nazorat qilish uchun bo‘lgan nizo hisoblanadi. Yuz yillik urush 14–15-asrlarda Angliya va Fransiya o‘rtasidagi uzluksiz kurash edi. O‘sha paytda Fransiya G‘arbiy Yevropaning eng boy, eng katta va eng ko‘p aholisi bo‘lgan qirolligi edi, Angliya esa G‘arbiy Evropaning eng yaxshi tashkil etilgan va eng yaqin integratsiyalashgan davlati edi. Ular bir qator masalalar, jumladan, Fransiyadagi inglizlarning hududiy egaliklari va fransuz taxtiga qonuniy merosxo‘rlik haqidagi tortishuvlardan vujudga keldi.

To‘qnashuvning birinchi bosqichida (1337–1360-yillar) fransuzlar ko‘p zarar ko‘rgan, lekin ikkinchi urush (1369–1396-yillar) zararni qisman qoplangan. Ammo Angliya qiroli Genrix V (1413–1422 hukmronligi)ning 1415-yilda Azenkur jangida Fransiya ustidan g‘alabaga erishadi. Natijada Fransiya ikkita bir biriga qarama-qarshi – Armagnak va Burgundiya fraksiyalarga bo‘linib ketadi. Burgundiya fraksiyasi Genrix V ning o‘g‘li Genrix VI tomonidan boshqariladi. 1420-yildagi Troya shartnomasiga ko‘ra, Genrix VI 7 yildan so‘ng Parijda qirol sifatida tan olinishiga olib keldi. Fransiyaning tahqirlanishi 1429-yilda to‘satdan to‘xtagan. Bunga birinchi sabab inglizlarning Orlean qamalida dehqon qizi – Janna d’Ark boshchiligidagi qo‘shin tomonidan mag‘lubiyatga uchrangani edi. Ikkinchi sabab esa tarixiy Reyms shahrida Karl VII ning toj kiyish marosimi edi. Keyinchalik Janna burgundiyaliklar tomonidan asir olingan va u ingliz ittifoqchilariga sotilib, 1431-yilda “bid’atchi” ayblovi bilan qatl etiladi. Bu voqea, Fransiyaning ulug‘ maqsadi timsoli sifatidagi qadrini ikki baravar oshirgan. 1435-yilda Fransiya

1435-yilda qirol va Burgundiya gersogi – Filipp Gud o‘rtasidagi yarashuv Fransiya tiklanishi yo‘lidagi eng katta to‘siqni olib tashlagan. Bu esa Angliya ustunligini Kale atrofidagi kichik bir hududga (1558-yilda mahrum bo‘lgan) qisqartirib, Parij (1436-yil), Normandiya (1450-yil) va Gyenning (1453-yil) qaytarib olinishiga olib kelgan. Angliya ustidan qozonilgan g‘alabadan so‘ng Fransiyaning kuchli milliy monarxiya sifatida paydo

bo‘lishi avvallari mustaqil Yevropa davlatlari bo‘lgan Burgundiya (1477-yil) va Bretan (1532-yil) gersogliklarining qo‘shib olinishi bilan muvaffaqiyatli yakunlangan.

Yuz yillik urushdagi yo‘qotishlar, ayniqsa, 1348-yilda Italiyadan kelib, Rona vodiysi bo‘ylab va u yerdan butun mamlakat yoqalab tez tarqalib ketgan vabo (qora o‘lim, odatda bubonli vabo epidemiyasi deyiladi) tufayli juda katta bo‘lgan. Hisob-kitobga ko‘ra, 1328-yilgi soliq deklaratsiyasi davrida Fransiyada taxminan 18–20 mln aholi bo‘lib, 150 yildan keyin bu ko‘rsatkich 50% yoki undan ko‘proqqa kamaygan. Plantagenet va kapetinglar oilalari o‘rtasidagi ziddiyat Yuz yillik urush deb ataladigan davrda (aslida 1337-yildan 1453-yilgacha bo‘lgan bir nechta alohida urushlar) plantagenetlar kapetinglar sulolasining Valua oilasidan Fransiya taxtini da’vo qilgach avj olgan. Bu, shuningdek, qora o‘lim (vabo) va bir nechta fuqarolar urushi davri edi. Bu voqealardan eng ko‘p Fransiya aholisi zarar ko‘rgan. 1420-yilda Truas shartnomasiga ko‘ra, Angliya qiroli Genrix V Fransiya qiroli Karl VI ning merosxo‘ri bo‘lgan. Genri V Karldan uzoq yashay olmagan, shuning uchun u merosxo‘rligicha olamdan o‘tgan. Ammo uning o‘g‘li Genrix VI keyinchalik ikki katta mamlakat hukmdori sifatida Angliya va Fransiya monarxiyasini mustahkamlagan.

Yuz yillik urush davrida fransuz aholisi boshiga tushgan og‘ir sharoit fransuz vatanparvarligi tuyg‘usi uyg‘onishida, aynan dehqon qiz, Janna d’Ark (1412–1431-yillar) ning hissasi katta. Garchi bu munozarali bo‘lsa-da, Yuz yillik urush feodal kurashning ketma-ketligi sifatida emas, balki fransuz-ingliz urushi sifatida esda qolgan. Bu urush davrida Fransiya siyosiy va harbiy jihatdan rivojlangan. Garchi fransuz-shotland armiyasi Bauj jangida (1421-yil) muvaffaqiyat qozongan bo‘lsa-da, Puatye (1356-yil) va Azinkurdagi (1415-yil) sharmandali mag‘lubiyat fransuz zodagonlarini uyushmagan armiyasiz maqsadiga yeta olmasligini anglashga majbur qilgan. Fransiya qiroli Karl VII (1422–1461-yillarda hukmronlik qilgan) ilk marotaba doimiy, uyushgan fransuz armiyasini tuzgan va plantagenetlarni bir marta Patayda (1429-yil) va yana to‘pdan foydalangan holda Forminda (1450-yil) mag‘lub etgan. Kastiliya jangi (1453-yil) Yuz yillik urushning so‘nggi urushi sifatida qabul qilingan. Ammo Kale normand orollari plantagenetlar boshqaruvida qolgan. 1453-yil 19-oktabr kuni Fransiya qiroli Karl VII ikki oydan ortiq davom etgan qamalidan so‘ng, Bordo shahriga kirdi va hududdagi Angliya hukmronligiga barham berdi. Bordo qamali 1337–1453-yillarda yuz bergan. Fransiya va Angliya qirolliklari o‘rtasida 1337-yildan 1453-yilgacha bo‘lgan davrda bo‘lib o‘tgan 1451-yil 29-iyun kuni Bordo shahri Karl VII tomonidan egallangan edi. Ammo bir yildan keyin Lord Talbot tomonidan qaytarib olingan edi. 1453-yil 17-iyul kuni fransuzlar Kastiyon jangida g‘alaba qozondi. Bu orqali ular Bordoga boradigan yo‘lni o‘zlari uchun ochgan bo‘ldi. Kastiyon shahrining qo‘lga kiritilishi ortidan atrofdagi Sent Emilion, Liburn, Fronsak, Burg, Bley kabi shaharlar ham egallandi. Bordo esa shu tariqa o‘rab olingan edi. 13-avgust kuni qiroli Karl VII qamalni boshqarish uchun Ambes burniga yetib keldi. Bordo shahri uch qavatli devor bilan o‘ralgan bo‘lib, yigirmadan ortiq minoralari bor edi. Shaharni himoya qilish uchun hozir bo‘lgan sakkiz ming odam ikki oy mobaynida qarshilik qildi. Yon atrofdagi qal’alarning mag‘lubiyati bordoliklarning ruhiyatini tushirib yubordi. Shuningdek, shaharlik boy savdogarlar o‘z mol-mulklaridan ayrilib qolishdan qo‘rqdi. Karl VII ga qo‘shimcha 15 ta

golland harbiy kemasi yordamga yetib keldi. Shunday sharoitda 9-oktabr kuni qirol va bordolik 9 nafar yuqori martabali shaxslar o‘rtasida tinchlik sulhi imzolandi. Shartnomaga muvofiq Bordo qirolga 100 ming ekyu (tanga) to‘lashi va fransuz asirlarni ozod qilishi belgilab qo‘yildi. Shahardan inglizlar chiqib ketdi va 19-oktabr kuni qirol Karl VII shaharga kirib bordi. Shahar boshqaruvi mahalliy aholiga berilishi va’da etilgan bo‘lsa-da, mer tayinlash qirolning huquqi edi. Shahar boshqaruv kengashini ham qirolning o‘zi tayinlash huquqiga ega bo‘ldi. Vino eksportiga soliq yuklandi. Bu tonnasiga 25 sent degani edi. Shaharning fransuzlar tomonidan egallanishi va uning ahamiyatining pasayishi ko‘plab burjuaziya vakillari va ziyolilarning Angliyaga ko‘chib ketishiga sabab bo‘ldi. Shu tariqa Bordo shahri Fransiya qirolligi tarkibiga qo‘shib olindi.

Shu tariqa yuz yillik urush Bordo qamali bilan yakunlanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. : britannica.com
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ,
3. info@daryo.uz